

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH**

**Dehqanova Mamura Ulmasovna**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti*

*Toshkent, Uzbekiston.*

**Farhodova Farangiz Jamshidovna -**

*TDPU 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada kichik məktəb o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlariini rivojlantirish va innovatsion o'yin texnologiyalaridan foydalanish mazmuni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lif, metodlar, dars, interfaol, klaster, qora quti, videotopishmoq, just barmoqchalar, beshinch (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha.

Bugungi kunda yurtimizda uzlusiz ta'lif tizimini jahon talablari asosida takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga olib chiqish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda ham ushbu yo'nalişning davomi sifatida barcha sohalari qatori ilm-fan, san'at, adabiyot, ma'rifatga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, xalq ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar: 2019-yilning 29-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Hujjatda xalq ta'limi tizimida mavjud muammolar va ularni yechish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, konsepsiya tizimda islohotlar amalga oshiriladigan 9 ta yo'naliş va 48 ta ko'rsatkichni belgilab bergen.<sup>29</sup>

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilda xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash PISA (The Programme for International Student Assessment), PIRLS dasturlari reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish va xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish va boshqa yo'nalişlarni belgilangan.

Ta'lif tizimini xalqaro tendensiyalari orqali tubdan isloh qilish, xorijiy ilg'or tajribalari asosida ta'lif mazmunini fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib borish, ta'lif jarayonlarida o'qitishning innovatsion ta'lif texnologiyalarini joriy etish amalga oshirilmoqda.

Innovatsion ta'lif texnologiyalari qanday texnologiya? Bu savolga javob berish uchun dastavval innovatsiya, novatsiya, innovatsion ta'lif tushunchalariga aniqlik kiritaylik:

<sup>29</sup> Uzedu.uz

innovatsiya- “innovation” ingliz tilidan tarjima qilinganda “yangilik kiritish” degan ma’noni bildiradi.<sup>30</sup>

Innovatsion ta’lim bu ta’lim oluvchida yangi g’oya, mayor, qoidalarni yaratish, o’zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg’or g’oyalar, mayor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limdir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida an’anaviy ta’lim texnologiyalari bilan bir qatorda noan’anaviy (nostandart, ilg’or, zamonaviy, yangi, innovatsion) texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Jumladan, shaxsga yo’naltirilgan o’qitish texnologiyasi; muammoli o’qitish texnologiyasi; hamkorlikda o’qitish texnologiyasi; modellashtirish o’qitish texnologiyasi; modulli o’qitish texnologiyasi; kompyuterli o’qitish texnologiyasi; jamoaviy ta’lim texnologiyasi; individual ta’lim texnologiyasi; ishbilarmonlik o’yin texnologiyasi; yiriklashtirib o’qitish texnologiyasi; tabaqalashtirish ta’lim texnologiyasi; jadval asosida o’qitish texnologiyasi; tayanch sxemalar asosida o’qitish texnologiyasi; tayanch so’zlar asosida o’qitish texnologiyasi; to’la o’zlashtirish texnologiyasi; kafolatlangan o’qitish texnologiyasi va jadallashtirish kabi o’qitish texnologiyalari mavjud.<sup>31</sup>

Mazkur o’qitish texnologiyalarni amalga oshirishda bir qator passiv, faol, interfaol va treninglardan keng foydalaniladi.

Passiv metodlar turkumiga ma’ruza, hikoya, tushuntirish; namoyish, kitob bilan ishslash, illyustratsiya, to’rtpog’onali metod., laboratoriya, mashq va boshqalar kiradi.

Faol o’qitish metodi bu talabalarning o’quv-bilish jarayonidagi fikrlash faoliyatini, ish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan metodlardir.

Faol metodlar turkumiga aqliy hujum, o’rgumchak to’ri, idrok xaritasi, klaster, sinkveyn, videoysul,videotopishmoq, davra suhbati; bahs; labirint, assiment, munozara, charxpalak, tushunchalar tahlili, rolli o’yin va boshqalar.

Interfaol metodi bu (“inter” bu o’zaro, ”act” – harakat qilmoq) ma’nolaridan kelib chiqib, o’zaro harakat qilmoq, hamkorlik muloqot tartibida bo’lishni anglatadi.

Interfaol yoki interaktiv metodlar turkumiga muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha, damino, qora quti, venn diagrammasi, qizil va yashil kartochkalar bilan ishslash, tajriba vositasida o’qitish sikli, pinbord, zanjir, zig-zag, kichik guruhlarda ishslash, eksprom, monitoring, zinamazina, debat, kubik, T sxema, SWOT, rezyume, FSMU, SCORE, metaplan, qarorlar shajarasi, 3|3, (4|4, 5|5) beshinchisi, (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha kabi metodlar kiradi.

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha” metodi-bu o’quv materialining mazmun-mohiyatini tushunchalar o’rtasidagi mantiqiy bog’liqlik asosida o’quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy mulohazalarni o’zaro taqqoslash ko’nikmalarini nazarda tutuvchi metoddir.

<sup>30</sup> Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari : -Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015, 7-bet

<sup>31</sup> Dexkanova M.U Axmetova K.I. Ta’lim texnologiyalari: - Toshkent-2019, 35-bet

O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi didaktik harakatlar amalga oshiriladi:

- O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘Imagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;
- o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘Imagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliknini asoslashlarini talab etish lozim).<sup>32</sup>

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Metodni qo‘llashda quyidagi didaktik harakatlar tashkil etiladi:

- o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘Imagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘Imagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘Imagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalilanadi.. Bu metodni 1-sinf atrofimizdagi olam darsligining “Uy hayvonlari va parrandalar” mavzusida qo‘llashimiz mumkin. Sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it kabi hayvon nomlari ekranada ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi. So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

O‘quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o‘quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg‘otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi.

Bu metodni qo‘llashdan maqsad o‘tilayotgan mavzu yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olish imkonini beradi. Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidasigi mantiqiy bog‘likni ko‘rsata va asoslash olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslash, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi<sup>33</sup>.

<sup>32</sup> Tolipov O’.Q., Usmonboyeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tabbiqiy asoslari:-”Fan” nashriyoti, 2006, 162-bet

<sup>33</sup> Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik mакtab yoshdagи o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish / SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>

Xulosa qilganda, zamonaviy ta’lim barcha o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini namoyish etish va ijodiy qobiliyatlarini istisnosiz namoyish etish imkoniyatini beradi<sup>34</sup>. Mazkur metodni qo’llash orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikr yuritish, mustaqil fikrlash, o‘z fikrlarini asoslay olish, shaxsiy munosabatlarini o‘zaro taqqoslash ko’nikmalarini shakllantiradi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. Uzedu.uz
2. Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H. va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. -Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015.
3. Dexkanova M.U Axmetova K.I. Ta’lim texnologiyalari: - Toshkent-2019
4. O’.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiylasoslari. -”Fan” nashriyoti, 2006.
5. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik mакtab yoshdagи o‘quvchilarnи ijtimoiy faolligini rivojlantirish / SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
6. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatning kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar psixik rivojlanishiga ta’siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары. Қазақстан Республикасының Шымкент қаласы. 2022 жыл, 13 мамыр. – B.432-441.
7. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda otonalarning o’rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск №22 (том 5) (январь, 2022). - С.1099-1103. [https://www.mpcareer.ru/\\_files/ugd/a62191\\_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf](https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf)
8. Салаева М. С., Бекназарова Х. Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(4), 2022. - Р. 136–139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>
9. Салаева М.С., Джумабаева М. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // Ижтимоий фанларда инновация онлайн илмий журнали, ISSN - 2181-2608. IMPACT FAKTOR - 8.2 SJIF:

<sup>34</sup> Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatning kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar psixik rivojlanishiga ta’siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары. Қазақстан Республикасының Шымкент қаласы. 2022 жыл, 13 мамыр. – B.432-441.

5.426 - Б. 59–62. Retrieved from  
<http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>

10. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема / SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) Pages 384-390.  
<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>